



O'ZBEKISTONDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI VAKOLATLARINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Aymuratov Sultamurat

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

sultanaymuratov@gmail.com

+998996699741

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8254502>

ARTICLE INFO

Received: 08th August 2023

Accepted: 16th August 2023

Online: 17th August 2023

KEY WORDS

Davlat hokimiyati, ijro organi, mahalliy davlat hokimiyati, davlat hokimiyati vakillik organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, xalq deputatlari Kengashlari, Viloyat hokimi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari to'xtalib o'tilgan bo'lib, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari, shuningdek ijroi organlarining faoliyati haqida aytib o'tilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, xalqning tinch va farovon hayoti uchun shart-sharoitlar yaratish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashiga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.[1. 22 B.] Hech birimizga sir emas o'tgan davrda davlat hokimiyati organlari faoliyati qonunchiligida ham tashkiliy-amaliy jihatlarida ham tub o'zgarishlar, yangilanishlar yuz berdi.[2. 263 B.] Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yaratilishi ular faoliyatining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu bois O'zbekiston mustaqillikka erishgach davlat hokimiyati vakillik organlari tizimidagi organlar va ular faoliyatini huquqiy asoslari yaratildi.[3. 102 B.] Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati bir qator huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishning asosiy prinsiplari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tog'risida"gi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy Qonuni va boshqa hujjatlar.

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo



etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat bermoqda.[4. 110 B.]

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasiga ko'ra: "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlaridir.

Xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi." [5]

Mahalliy vakillik hokimiyati tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunida to'liq tushuncha berilib o'tiladi. Qonunning birinchi moddasiga ko'ra: "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir." [6] Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashadilar, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi berilgan vakolatlari doirasida umum manfaatni ifodalovchi tadbirlar o'tkazish, qo'shimcha korxonalar, xo'jalik tashkilotlari tuzish uchun, turli tarmoqlar va boshqaruv sohalarida faoliyatlarni uyg'unlashtirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasining, O'zbekiston Respublikasi boshqa viloyatlari, shaharlari va tumanlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan shartnomalar asosida o'zaro munosabatlar o'rnatishga haqlidirlar.

Mahalliy Kengashlar tom ma'nodagi vakillik hokimiyati organi bo'lishi uchun mahalliy miqyosdagi masalalarni hal qilish qobiliyatiga, imkoniyatiga ega bo'ladigan darajada vakolatlar bilan ta'minlandi. Xalq deputatlari Kengashlarining vakillik xarakterini ularning aholi tomonidan saylanishi, ularning tarkibida aholi xohish-irodasini aks ettiradigan, turli tabaqa vakillarining bo'lishi ko'rsatadi. Mahalliy Kengashlarga saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tishining belgilanishi, saylovlarda o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtirok etishi vakillik xarakterini yanada kuchliroq, yaqqolroq aks ettirdi. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalashi va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylangan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda, amalga oshirishda ishtirok etishini ko'rsak, ularning ishtiroki xalq deputatlari Kengashlarida vakillik xarakterini yanada yaqqol namoyon etadi.[7. 319 B.]

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun" tamoyiliga asoslanadi [8. 91 B.]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoni](#)da [9] "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish nomli yo'nalishining ikkinchi "Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish" maqsadida quyidagilar aytib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra:



Xalq deputatlari Kengashlarida doimiy asosda faoliyat yurituvchi deputatlar korpusini shakllantirish va ularning vakolatlarini kengaytirish orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish.

Xalq deputatlari Kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha ularning mas'uliyatini kuchaytirish.

Mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, xalq deputatlari Kengashlarining Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo'linmalari bilan aloqalarini mustahkamlash.

Mahalliy kengashlarning kotibiyatlari faoliyatini yanada kuchaytirish choralarini ko'rish maqsad qilib qo'yilgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning maqsad va vazifalari ularning barqarorligini hisobga olgan holda, barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ekologik talablarga muvofiq belgilanishi kerak[10. 66 B.]. Zero, davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhitni yaratish, shuningdek, sog'lom atrof muhitga bo'lgan huquqni amalga oshirishdir[11. 65]. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasiga ko'ra Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi mutloq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan atrof-muhitni muhofaza etish sohasida nazoratni amalga oshiradilar. Yani "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga ko'ra:

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishida ishtirok etadi;

hududiy ekologik dasturlarni tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

tegishli hududda davlat ekologik nazoratini amalga oshiradi;

ekologik nazoratning boshqa subyektlari va ommaviy axborot vositalari bilan davlat ekologik nazorati masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.[12]

References:

1. Tursinbaev, M. (2023). IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMINING ASOSIY BO 'G 'INI SIFATIDA VAZIRLIK LARNING HUQUQIY MAQOMINI OSHIRISH BO 'YICHA ISLOHATLAR. *SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI*, 2(7), 22-24.
2. Aymuratov, S., & Omirzakov, R. (2023). O'ZBEKISTONDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK VA IJROIYA ORGANLARI O'ZARO MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(6), 263-266. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/18509>
3. Aymuratov, S. (2022). ISSUES OF LAW STRUCTURE AND ITS IMPROVEMENT IN UZBEKISTAN. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(5), 102-105.



4. Omirzakov, R. (2023). CONSTITUTIONAL AND LEGAL GUARANTEES OF ENVIRONMENTAL RIGHTS OF CITIZENS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 12, pp. 110-111).
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi [referendumida](#) umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan) // URL: <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445187>
6. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni, 02.09.1993 yil // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-112170>
7. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik.. - 4-nashr. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. - 400 c.
8. Rustem Omirzakov. (2023). SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS AND ITS ROLE IN THE STATE POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF ENVIRONMENTAL PROTECTION. *International Journal Of Law And Criminology*, 3(07), 89-93. <https://doi.org/10.37547/ijlc/Volume03Issue07-15>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son [Farmoni](#) // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
10. Omirzaqov Rustem Abdirazaq Uli (2022). O'SIMLIKLAR DUNYOSI MUHOFAZASI VA BARQAROR RIVOJLANISH. *Science and innovation*, 1 (D2), 65-67. doi: 10.5281/zenodo.660217
11. Omirzaqov, R. (2022). PROTECTION OF FLORA AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(2), 65-67.
12. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni, 27.12.2013 yil // URL: <https://lex.uz/docs/-2304953>